



**TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY OLAMINI
SHAKLLANTIRISH VA KAMOL TOPTIRISHNING AHAMIYATI**

*Mansurov N.A. – K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
dotsenti.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy yetuk, intelektual salohiyatli barkamol shaxsni tarbiyalashda yoshlarning ma'naviy olamini shakllantirish va kamol toptirish, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, shuningdek, ularning ma'naviy-ahloqiy ongini rivojlantirish yo'llari, pedagogik ta'sir vositalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *ma'naviyat, ijtimoiy faollik, pedagogik akmeologiya – komil inson g'oyasi, tashabbuskorlik, ma'naviy-ahloqiy barkamollik, komillik, tarbiya.*

Аннотация. В данной статье освещены формирование духовного мира молодежи в воспитании духовной, интеллектуально способной, гармонично развитой личности, а также пути развития духовно-нравственного сознания, средств педагогического воздействия.

Ключевые слова: духовность, педагогическая акмеология, идея гармонично развитого человека, инициативность, обучение, совершенство, духовно-нравственная гармоничность.

Annotation: in this article is given information about developing young generations' spiritual and intellectual abilities, preparing the humanious perfect and professional skillful students. Here also given information about the ways of developing students' spiritual and moral outlook and the means of pedagogical influence for that.

Key words: spirituality, social activity, pedagogical acmeology-idea of a harmoniously developed person, initiative, training, perfection, spiritual and moral harmony.



Bugungi kunda mamlakatimiz amalga oshirilayotgan islohatlarning zamirida, uzlusiz ta’lim tizimini tubdan rivojlantirish hamda xalqaro tajribalar asosida modernizatsiyalash, oliy ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda, talaba-yoshlarning ma’naviy-ahloqiy ongini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar masalariga to‘xtalib o‘tar ekan: “Ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo‘naltirish, ularni qiziqishlarini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash – davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifadir” [1], deb ta’kidlaganlari ham bejis emas.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham, talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasini ta’minlash, ma’naviy yetuk, barkamol yosh avlodni voyaga yetishishida quydagi vazifalarning belgilab olingani ham eng muhim masalalardan biridir:

- oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy-axloqiy g‘oyalalar asosida, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish;
- yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalash;
- davlatimiz istiqboli bo‘lgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash barcha islohotlarimiz zamirida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda ma’naviy yetuk hamda barkamol yosh avlodnitarbiyalash maqsadida keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida 2016 yil 14 sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘risida”gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilingani ham yurtimiz istiqboli



bo‘lgan yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan asosiy poydevoridir. Ushbu qonunning qabul qilinishi ham yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalardan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlardan tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlardan sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshirish[2]. kabi muhim vazifalar belgilab olingani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakatimiz yoshlarning tyanchi va suyachi bo‘lib faoliyat olib borayotgan 2017 yil 30 iyunda tashkil etilgan O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarida, yoshlarni ma’naviy yetuk hamda barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun respublika miqyosida turli tanlovlardan, hayriya aksiyalari, yoshlardan o‘rtasida kitobxonlikni yuksaltirish bo‘yicha “Yosh kitobxon” kabi bir qancha loyihalarni tashkil etib kelmoqda. Ushbu, amalga oshirilayotgan islohatlar negizida har bir yosh avlodni bir g‘oya ostida birlashtirish “Vatan bizga nima berdi, deb emas! Balki, Men vatan uchun nima qildim!” degan bosh maqsadni yosh avlodda shakllantirishni o‘z oldiga qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi o‘z oldiga yana bir qator muhim vazifalarni oldiga qo‘ygan, shular qatorida mamlakatimizda erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishga ko‘maklashish, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirib borish, yoshlarning kuch-g‘ayratini, intellektual salohiyati, kasb malakasini vatan ravnaqini uchun yo‘naltirish, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy merosimizni chuqr o‘rganish ham yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yangi bosqichga chiqayotgan bir davrda yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlardan eng muhim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 mart kuni ilgari surilgan besh muhim tashabbusi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu ilgari surilgan beshta



eng muhim tashabbusda yoshlarimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minalash kabi asosiy vazifalarning ilgari surilgani ham, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo mafkuraviy manzarasida, yoshlarimizda mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarb masala sifatida qo‘yilgan.

Akademik E.Yusupov tahriri ostida chop etilgan “Ma’naviy kamolat omillari” nomli kitobida, ma’naviy yetuk, barkamol yosh avlodni tarbiyalashda ta’lim – tarbiyaning o‘rni beqiyosdir deb ta’kidlagan edi. Yosh avlodni tarbiyalashda dono xalqimizning o‘ziga xos, uzoq tarix tajribasi sinovidan o‘tgan ajoyib an’analari bor. Ularning axloq va odobi o‘zbekona tarbiyaning maxsulidir. Xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma’naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Inson ma’naviy boyliklari, axloq odob meyorlarining shakllanishi va rivojlanishi, ta’lim – tarbiyaning yangi usullari, turli – tuman jihatlari yuzaga kelishi jamiyat taraqqiyotining bir – biri bilan uzviy bog‘langan xalqalaridir[3]. Bu zanjirning biror xalqasini uzilishi ta’lim – tarbiya ishining muayyan zaruriy imkoniyatlarini yo‘qolishiga olib keladi degan purma’noli fikrlarida ham yosh avlod tarbiyasi o‘z dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mamlakatmiz Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2008 yilda nashr etilgan “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asari yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarda ma’naviyat xodisasi avvalo tarix va bugungi kun, inson, xalq va millat kategoriyalari, milliy hamda umumbashariy qadriyatlar, chuqur tahlil asosida yoritib berilgan. Mazkur kitobda ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu **ta’lim-tarbiya tizimi** bilan chambarchas bog‘ligi asoslاب berilgan.

Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebahoh boylik bo‘lmish ilmu-ma’rifat, ta’lim va tarbiya inson kamolotida va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb biladi. Albatta, ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi



va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir[4] deb ta’kidlangan bo‘lsa, asarning 50 sahifasida yana bir dolzarb vazifa – o‘sib kelayotgan avlodga, uning ma’naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi qo‘yilgan. Chunki, yoshlar – xalq ma’naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o‘g‘il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab, madaniy boyliklarimizdan bahramand bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida keltirib o‘tilgan. Shu o‘rinda, ma’naviyatga berilgan bir ta’rifni ta’kidlashni joiz deb topdim.

I.Karimov “**ma’naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”, deb berilgan ta’rifida ham inson go‘zalligi ham botiniy ham zohiriyl olam orqali ma’naviyatga yetishishi ta’kidlangani ham bejizga emas.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi sharq mutafakkirlari tafakkurida Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshfiylarning ta’limiy axloqiy asarlari ma’naviy g‘oyalarni tahlil qilgan holda yoshlarga yetkazish yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk adib Mirzakalon Ismoiliy inson ma’naviyatiga ta’rif berar ekan, insonning go‘zalligi bilan ahloqi, ichki dunyosi va yaxshi fazilatlari orasidagi mushtaraklikni

badiiy obrazlarda quydagicha: “Go‘zallik ham bamisoli daraxt. Yaproq‘i – axloq, ildizi – ichki dunyo, mevusi fazilat. Odam bolasidagi go‘zallik – tabiat ato qilgan husn-jamoldan tashqari, yana eng yaxshi xulq atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o‘z ichiga olgan odamiylikdan iboratdir[5]” deb mohirona tasvirlaydi. Chunki, inson ma’naviyati qalb go‘zalligi bilan birgalikda yuksaladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyat ham muayyan ijtimoiy, ma’naviy zamin asosida yuksaladi. Yosh avlod ma’naviy olami asosan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa ham, u o‘z navbatida, jamiyat tarqqiyotiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatadigan, uni belgilab beradigan omil hamdir. O‘sib kelayotgan yosh avlodda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik,



insonparvarlik e'tiqodi, vatanparvarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, burch va mas'ulyatni xis qilish imkoniyati qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayadi, tinchlik, osoyishtalik barqaror bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi yoshlarning ma'naviy kamolotida ham yangi

davrning yuzaga kelishidir. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmanidek, jamiyatsiz ma'naviyat rivojlanishi mumkin emas. Shuning uchun ham, ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash – mamlaktimizda olib borilayotgan islohatlar zamirida ham o'z ifodasini topib bormoqda. Buning yaqqol dalili sifatid yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va barkamol qilib tarbiyalash bo'yicha davlatimiz rahbarining ilgari surgan besh muhim tashabbusi bo'yicha, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mazkur sohadagi amalga oshirilayotgan ishlarni yanada rivojlantirishda esa, ***bizning nazarimizda***, quyidagi pedagogik ta'sir vositalariga alohida e'tibor qaratish

maqsadga muvofiq sanaladi:

- yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda tengdosh-tengdoshga degan g'oyani ilgari surish, oliv ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning mustaqil fikrashi va ijodkorlik

ko'nigmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Talaba minbari" loyihasini ommalashtirish;

- barcha yosh avlod vakillari uchun manzur bo'ladigan teleko'rsatuv va eshittirishlarni yo'lga qo'yish, mediaishlanmalarni yaratish;

- ta'lim muassasalarida yoshlarning hohish-istiklari va kasbiy qiziqishlariga yo'naltirilgan fan klublari faoliyatini yo'lga qo'yish va kuchaytirish;

- ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar ishtirokida "Axborot va murabbiylik" soatlarida yoshlar masalalariga bag'ishlangan treninglar tashkil qilish,



mentorlik, Ustoz-shogirdlik tizimini yanada rivojlantirish shular jumlasiga kiradi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш. (2017). “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”. Тошкент: Ўзбекистон, 31-б.
2. “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун янги таҳрирдаги 2016 йил 14 сентябрь.
3. Юсупов Э. (1995). “Маънавий комолот омиллари”. Тошкент: Университет, 5 б.
4. Каримов И. (2008). “Юксак маънавият-енгилмас қуч”. Маънавият. 38-50-б
5. Мирзакалон И. (1989). “Инсон Ҳусни”. Тошкент. 3-б. __